| MINTAQALARNING INVESTITSION SALOHİYATINI BAHOLASHNING ZAMONAVIY METODOLOGIK YONDASHUVLARI VA ULARNING IJTIMOİY-IQTISODIY RIVOJLANISHGA TA'SIRI .....      | 737 |
| <b>Qobilov Anvar Eshpo'latovich</b>                                                                                                                       |     |
| KICHIK VA O'RTA BIZNESNI QO'LLAB-QUVVATLASH INFRATUZILMASINI RIVOJLANTIRISH .....                                                                         | 741 |
| <b>Madraimova Marxamat Raximberganovna</b>                                                                                                                |     |
| ЗАРУБЕЖНЫЙ ОПЫТ ЭФФЕКТИВНОГО ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ТУРИСТСКО-РЕКРЕАЦИОННОГО ПОТЕНЦИАЛА РЕГИОНА .....                                                              | 748 |
| <b>Усманова Зумрад Исламовна</b>                                                                                                                          |     |
| TITLE: PUBLIC-PRIVATE PARTNERSHIP AS A MECHANISM FOR SUSTAINABLE DEVELOPMENT OF THE TOURISM SECTOR IN UZBEKISTAN .....                                    | 753 |
| <b>Suxrobbek M. Salayev</b>                                                                                                                               |     |
| XORAZM VILOYATI TASHQI IQTISODIY FAOLIYATIDAGI TARKIBIY O'ZGARISHLARNI BAHOLASH VA UNI OPTIMALLASHTIRISH ISTIQBOLLARI .....                               | 761 |
| <b>Urunov Farrux Shanazarovich</b>                                                                                                                        |     |
| O'ZBEKISTONDA DAVLAT AUDITI TIZIMINING STRATEGIK TRANSFORMATSIYASI: INSTITUTSIONAL ISLOHOTLAR VA RAQAMLI MONITORINGNING STRATEGIK AHAMIYATI .....         | 765 |
| <b>Turabov Baxodir To'xtamishovich</b>                                                                                                                    |     |
| TURIZM SOHASIDA BANDLIKNING 2025-2030-YILLARDAGI PROGNOZ PARAMETRLARI .....                                                                               | 770 |
| <b>N.I. Shermamatova</b>                                                                                                                                  |     |
| BO'SH TURGAN DAVLAT KO'CHMAS MULK OBYEKTLARIDAN SAMARALI FOYDALANISHNI TASHKIL ETISHNING AHAMIYATLI JIHATLARI (O'ZBEKISTON MISOLIDA) .....                | 776 |
| <b>Sanjarov Zuxriddin Dilshod o'g'li, Astonaqulov Muzaffar Muxsin o'g'li</b>                                                                              |     |
| TIJORAT BANKLARINING RESURS BAZASI BARQARORLIGINI TAVSIFLOVCHI KO'RSATKICHLAR .....                                                                       | 781 |
| <b>Bolibekov Shahboz Baxodir o'g'li</b>                                                                                                                   |     |
| MOLIYA-KREDIT JARAYONLARI: INVESTITSION FAOLLIKNI TA'MINLASH MEKANIZMI SIFATIDA .....                                                                     | 787 |
| <b>Madaminov In'omjon Ozodovich</b>                                                                                                                       |     |
| YASHIL IQTISODIYOTDA RESURLARDAN SAMARALI FOYDALANISHNING NAZARIY ASOSLARINI TAKOMILLASHTIRISH MEKANIZMLARI .....                                         | 792 |
| <b>Karimov Islombek Bekpo'lat o'g'li</b>                                                                                                                  |     |
| OLIY TA'LIMDA ILMIY TADQIQOTLAR VA ISHLAB CHIQRISH INTEGRATSIYASI SAMARADORLIGI .....                                                                     | 798 |
| <b>Uzaydullayev Sherzod Shukurullayevich</b>                                                                                                              |     |
| XUSUSIY MAKTABLARNING BOSHQARUV TIZIMINI QAROR QABUL TIZIMLARI VA O'RGANUVCHI ANALITIKASI YORDAMIDA YANGILASHNING YO'LLARI .....                          | 802 |
| <b>Esanova Shohida</b>                                                                                                                                    |     |
| MOLIYA BOZORIDA TIJORAT BANKLARI RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISHDA ISLOMIY MOLIYA INSTRUMENTLARIDAN FOYDALANISH MEKANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH .....      | 812 |
| <b>Abduraxmanova Matluba Maxamadaminovna</b>                                                                                                              |     |
| KORXONALARDA KREDITOR QARZDORLIKNI BARTARAF ETISH YO'LLARI .....                                                                                          | 819 |
| <b>Mirzaev Ozod Furkatovich</b>                                                                                                                           |     |
| ЛЕКСИЧЕСКАЯ КОМПЕТЕНЦИЯ КАК КЛЮЧЕВОЙ КОМПОНЕНТ ПРОДУКТИВНОЙ ПИСЬМЕННОЙ РЕЧИ .....                                                                         | 824 |
| <b>Киличева Феруза Бешимовна</b>                                                                                                                          |     |
| MODERN MECHANISMS FOR MONITORING REGIONAL DEVELOPMENT IN THE CONTEXT OF DIGITAL ECONOMY .....                                                             | 828 |
| <b>Karimova Shirin Zokhid qizi</b>                                                                                                                        |     |



|                                                                                                                                                                                        |     |
|----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-----|
| АЛЬТЕРНАТИВНЫЕ МЕТОДЫ КРЕДИТНОГО СКОРИНГА ДЛЯ НАСЕЛЕНИЯ БЕЗ БАНКОВСКОЙ ИСТОРИИ В УЗБЕКИСТАНЕ .....                                                                                     | 833 |
| Шухратова Мадинабону Икром кизи                                                                                                                                                        |     |
| SHAHAR EKOLOGIYASI: SHAHAR EKOTIZIMLARI VA BARQAROR RIVOJLANISH .....                                                                                                                  | 841 |
| Erkiniva Mukarram Olimjon qizi                                                                                                                                                         |     |
| CHAKANA SAVDO XIZMATLARINI KO'RSATUVCHI KORXONALARDA SAMARADORLIKNI OSHIRISHNING XORIJIY MAMLAKATLAR TAJRIBASI .....                                                                   | 845 |
| Abdug'aniyev Oybek Akmaljon o'g'li                                                                                                                                                     |     |
| KUZATUV KENGASHI XUSUSIYATLARINING KORPORATIV BOSHQARUV SAMARADORLIGIGA TA'SIRI: NAZARIY VA KONSEPTUAL YONDASHUV .....                                                                 | 850 |
| Jumayeva Go'zal Sherxon qizi                                                                                                                                                           |     |
| EKONOMETRIK MODELLASHTIRISH NATIJALARI NODAVLAT NOTIJORAT TASHKILOTLARI FAOLIYATINI BOSHQARISHDA MUHIM AMALIY AHAMIYAT .....                                                           | 854 |
| Sattorov Firdavs Ziyodullayevich                                                                                                                                                       |     |
| RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA KICHIK BIZNES VA TADBIRKORLIKNI RIVOJLANTIRISHDA TIJORAT BANKLARINING O'RNI .....                                                                       | 858 |
| Abduholikov Kamoldin Mahammadjonovich                                                                                                                                                  |     |
| SANOAT KORXONALARINING HUDUDLAR KESIMIDAGI RIVOJLANISH TENDENSIYALARINI STATISTIK TAHLIL QILISH .....                                                                                  | 862 |
| Muydinov Xusniddin Nuriddin o'g'li                                                                                                                                                     |     |
| O'ZBEKISTONDA XIZMATLAR EKSPORTINI RIVOJLANTIRISHNING EKOLOGIK JIHATLARI .....                                                                                                         | 867 |
| Qodirjonov Adxamjon Muxtorjon o'g'li                                                                                                                                                   |     |
| INKLYUZIV TA'LIMNI MOLIALASHTIRISHNING XALQARO MODELLARI VA ULARNING SAMARADORLIGI .....                                                                                               | 872 |
| Muxamedjanova Dilshodxon Muzaffarovna                                                                                                                                                  |     |
| SANOAT KORXONALARIDA "YASHIL" TRANSFORMATSIYA JARAYONINING XUSUSIYATLARI .....                                                                                                         | 877 |
| Ismatulloeva Madinabonu Fozil qizi                                                                                                                                                     |     |
| TO'QIMACHILIK SANOATI MAHSULOTLARINING RAQOBATBARDOSHLIGINI TA'MINLASH .....                                                                                                           | 884 |
| Kadirova L.G.                                                                                                                                                                          |     |
| MAIN DIRECTIONS FOR DEVELOPING SOCIAL ENTREPRENEURSHIP IN THE REGION .....                                                                                                             | 887 |
| Nasretdinova Farangis Odilovna                                                                                                                                                         |     |
| THE IMPORTANCE OF MARKETING COMMUNICATIONS IN THE SERVICES SECTOR .....                                                                                                                | 895 |
| Mamatkulova Shoira Djalolovna                                                                                                                                                          |     |
| AHOLI DAROMADLARINI OSHIRISH — ICHKI TALABNI RAG'BATLANTIRISH VA KAMBAG'ALLIKNI QISQARTIRISH OMILI .....                                                                               | 900 |
| Mustafoev G'olib Sultonmurodovich, Abruyev Abdumalik Oynazarovich                                                                                                                      |     |
| BIZNES JARAYONLARINI MODELLASHTIRISH VA ULARNI QO'LLASHNING NAZARIY-USLUBIY ASOSLARI .....                                                                                             | 906 |
| Qarshiyeva Moxinur Olim qizi                                                                                                                                                           |     |
| KORXONADA RAQAMLI IQTISODIYOTNI JORIY ETISHNING IQTISODIY AHAMIYATI .....                                                                                                              | 911 |
| Salimova Husniya Rustamovna                                                                                                                                                            |     |
| RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA XIZMAT KO'RSATISH KORXONALARIDA BOSHQARUV SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING USTUVOR YO'NALISHLARI: BUXORO VILOYATI MISOLIDA .....                        | 918 |
| Zayavitdinova Nafisa Muxammadovna                                                                                                                                                      |     |
| XALQARO MOLIYA INSTITUTLARI MOLIVAVIY MAHSULOTLARI VA ULARNING O'ZBEKISTON IQTISODIY RIVOJLANISHIDAGI ROLI .....                                                                       | 926 |
| Rasulova Dilfuza Valiyevna                                                                                                                                                             |     |
| O'ZBEKISTON IQTISODIYOTIDA IQTISODIY O'SISH VA MEHNAT BOZORI KO'RSATKICHLARINING DINAMIKASI .....                                                                                      | 932 |
| Qodirov Asliddinxo'ja Mahammadjon o'g'li                                                                                                                                               |     |
| FOYDALANUVCHI SADOQATINI SHAKLLANTIRISHNING MARKETING VA NEYROMARKETING MEXANIZMI SIFATIDA GEYMIKATSIYA ELEMENTLARINI QO'LLASH: DODO PIZZA MOBIL ILOVASI MISOLIDA EMPIRIK TAHLIL ..... | 937 |
| Yuldashev Jamshid Abrarovich, Daminova Nilufar Bahrom qizi                                                                                                                             |     |





|                                                                                                                                                                        |      |
|------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|------|
| KORXONADA XODIMLARNI BOSHQARISHNING TASHKILIY MEXANIZMLARINI SHAKLLANTIRISH .....                                                                                      | 945  |
| Sadriddinova Sevinchxon Sadriddin qizi                                                                                                                                 |      |
| TIKUV-TRIKOTAJ KORXONALARIDA XODIMLAR MOTIVATSIYASI VA MEHNAT UNUMDORLIGINI OSHIRISH YO'LLARI.....                                                                     | 948  |
| Murodova Zilola Asatulla qizi                                                                                                                                          |      |
| KUZATILMAYDIGAN IQTISODIYOT TUSHUNCHASI, SHAKLLARI, TURLARI VA YUZAGA KELISH OMILLARI.....                                                                             | 952  |
| Abdullayev Shavkat Nasriddinovich                                                                                                                                      |      |
| NODAVLAT OLIY TA'LIM TASHKILOTLARIDA XARAJATLAR SMETASI VA SHTATLAR JADVALINI SHAKLLANTIRISHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI .....                                        | 959  |
| Yaqubova Nodira Olim qizi                                                                                                                                              |      |
| РАЗВИТИЕ, РИСКИ, ОБЕСПЕЧЕНИЕ УСТОЙЧИВОСТИ ТУРИСТИЧЕСКОЙ ОТРАСЛИ УЗБЕКИСТАНА В СОВРЕМЕННЫХ УСЛОВИЯХ.....                                                                | 964  |
| Бабаджанова Лола Шопулатовна, Срожиддинова Зарина Хайриддиновна                                                                                                        |      |
| KOMPANIYALARNING FOND BOZORIDAGI ISHTIROKINI RAG'BATLANTIRISH AHAMIYATI.....                                                                                           | 970  |
| Mamataliyev Bobur Saidnazar o'g'li                                                                                                                                     |      |
| GLOBALLASHUV SHAROITIDA INTELLEKTUAL TA'MINOT ZANJIRI TEXNOLOGIYALARINING XALQARO TADBIRKORLIKDAGI O'RNI .....                                                         | 977  |
| Xudayberdiyev Otabek Absalomovich                                                                                                                                      |      |
| HUDUD IQTISODIYOTINI RIVOJLANTIRISHDA MAHALLIY DAVLAT HOKIMIYATI ORGANLARINING INSTITUSIONAL SALOHİYATI: NAZARIY TALQIN VA YAPONIYA, GERMANIYA, XITOIY TAJRIBASI ..... | 983  |
| Bekchanov Davron Masharipovich                                                                                                                                         |      |
| O'ZBEKISTONDA AHOLI BANDLIGINI OSHIRISH VA MEHNAT FAOLIYATI UNUMDORLIGINING IQTISODIY YUKSALISHDAGI O'RNI.....                                                         | 988  |
| Anvarova Lobarxon                                                                                                                                                      |      |
| TURIZM SOHASIDA HAYOT SUG'URTASI TIZIMINING IQTISODIY-HUQUQIY ASOSLARI VA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI: XALQARO TAJRIBA VA MILLIY AMALIYOT .....                           | 992  |
| J.Kamalova                                                                                                                                                             |      |
| MADANIYAT SOHASI MUASSASALARINI AUDITDAN O'TKAZISHNING XORIJIY MAMLAKATLAR TAJRIBASI .....                                                                             | 999  |
| Annayev Abdurasul Abdurashidovich                                                                                                                                      |      |
| RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA ALOQA XIZMATLARINI RIVOJLANTIRISHNING DAVLAT TOMONIDAN TARTIBGA SOLISH ASOSIY YO'NALISHLARI.....                                        | 1004 |
| Nazarov Sanjar Nasridinovich                                                                                                                                           |      |
| KORXONALARDA MARKETING MEXANIZMINI TAKOMILLASHTIRISHNING IQTISODIY MOHIYATI VA AHAMIYATI (BUXORO VILOYATI KORXONALARI MISOLIDA).....                                   | 1009 |
| Sirojov Oxunjon Odil o'g'li                                                                                                                                            |      |
| YASHIL IQTISODIYOT SHAROITIDA ISH BILAN BANDLIKNI RIVOJLANTIRISHNING INSTITUSIONAL VA IQTISODIY MEXANIZMLARI .....                                                     | 1015 |
| Bobojonov To'liqinbek Maxmud o'g'li                                                                                                                                    |      |
| ERKIN IQTISODIY ZONALAR UCHUN RAQAMLI BOSHQARUV VA INVESTITSIYA MONITORINGINING MUALLIFLIK MODELİ .....                                                                | 1020 |
| Abdiyev Alimardon Chorshanbiyevich, Shamsiyeva Ruxsora Nasirovna                                                                                                       |      |
| IQTISODIY BARQARORLIKNI TA'MINLASHDA BUXGALTERIYA VA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNING O'RNI .....                                                                            | 1025 |
| Kunduzova Kumrixon Ibragimovna, Jo'rayev Asadbek Anvarjon o'g'li                                                                                                       |      |
| СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ ИНСТИТУЦИОНАЛЬНОЙ СРЕДЫ ДЛЯ РАЗВИТИЯ МАЛОГО БИЗНЕСА И ЧАСТНОГО ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСТВА В УЗБЕКИСТАНЕ .....                                               | 1031 |
| Камилова Наргиза Абдукажоровна                                                                                                                                         |      |
| THE ADDITIONALITY GAP: EVALUATING THE SYNERGY BETWEEN GREEN FINANCE AND MACROECONOMIC STABILITY IN EMERGING ECONOMIES .....                                            | 1036 |
| Ataxanov Umidbek Olimovich                                                                                                                                             |      |



|                                                                                                                                                                           |      |
|---------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|------|
| AHOLINI IJTIMOIIY HIMOYA QILISH TIZIMIDA SUN'IY INTELLEKT: O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI<br>MISOLIDA JORIY ETISH IMKONIYATLARI VA XIZMATLAR SIFATINI OSHIRISH MASALALARI ..... | 1042 |
| Xidirbayev Baxrom Baxtiyarovich                                                                                                                                           |      |



# AHOLINI IJTIMOIIY HIMOYA QILISH TIZIMIDA SUN'IY INTELLEKT: O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI MISOLIDA JORIY ETISH IMKONIYATLARI VA XIZMATLAR SIFATINI OSHIRISH MASALALARI

**Xidirbayev Baxrom Baxtiyarovich**

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti  
"Byudjet hisobi va g'aznachilik" kafedrası  
mustaqil izlanuvchisi (PhD)

**Annotatsiya.** Maqolada O'zbekiston Respublikasida aholini ijtimoiy himoya qilish tizimiga sun'iy intellektni joriy etishning institutsional imkoniyatlari, amaliy salohiyati va tizimli cheklovlari tahlil qilinadi. Tadqiqot xalqaro tajriba, qiyosiy institutsional yondashuv hamda "ijtimoiy ne'matlarni aralash ishlab chiqarish" nazariyasi asosida olib borilgan. Sun'iy intellekt ijtimoiy qo'llab-quvvatlashning manzilliligini oshirish, zaif xonadonlarni erta aniqlash, xizmatlarni shaxsga moslashtirish va idoralararo ma'lumotlar boshqaruvini takomillashtirish vositasi sifatida ko'rib chiqiladi. Shu bilan birga, algoritmlashtirish bilan bog'liq ma'lumotlar sifati, institutsional nomuvofiqlik, diskriminatsion xatolar, shaffoflik va hisobdorlikka oid xatarlar ham yoritiladi. Maqolada O'zbekistonda ijtimoiy himoya islohotlari sharoitida sun'iy intellektni bosqichma-bosqich, ehtiyotkor va inson markazidagi tamoyillar asosida joriy etish modeli taklif etiladi. Tadqiqotning ilmiy yangiligi welfare mix nazariyasi, xalqaro raqamlashtirish amaliyoti va milliy ijtimoiy siyosat vazifalarini o'tish iqtisodiyoti sharoitiga mos yagona tahliliy doirada birlashtirishdan iborat.

**Kalit so'zlar:** sun'iy intellekt, ijtimoiy himoya, O'zbekiston, manzillilik, prediktiv tahlil, raqamlashtirish, welfare mix, xizmatlarni shaxsga moslashtirish.

**Abstract.** The article examines the institutional opportunities, practical potential, and systemic limitations of introducing artificial intelligence into the social protection system of the Republic of Uzbekistan. The study is based on international experience, a comparative institutional approach, and the theory of the mixed production of social benefits. Artificial intelligence is considered a tool for improving the targeting of social support, early identification of vulnerable households, personalization of services, and enhancement of interagency data governance. At the same time, the article highlights risks related to data quality, institutional misalignment, discriminatory bias, transparency, and accountability. In the context of social protection reforms in Uzbekistan, a phased, cautious, and human-centered model for AI implementation is proposed. The scientific novelty of the study lies in integrating welfare mix theory, international digitalization practices, and national social policy objectives into a unified analytical framework adapted to the conditions of a transition economy.

**Key words:** artificial intelligence, social protection, Uzbekistan, targeting, predictive analytics, digitalization, welfare mix, service personalization.

**Аннотация.** В статье исследуются институциональные возможности, практический потенциал и системные ограничения внедрения искусственного интеллекта в систему социальной защиты населения Республики Узбекистан. Исследование основано на международном опыте, сравнительном институциональном подходе и теории смешанного производства социальных благ. Искусственный интеллект рассматривается как инструмент повышения адресности социальной поддержки, раннего выявления уязвимых домохозяйств, персонализации услуг и совершенствования межведомственного управления данными. Одновременно освещаются риски, связанные с качеством данных, институциональной несогласованностью, дискриминационными ошибками, прозрачностью и подотчётностью. В условиях реформ социальной защиты в Узбекистане предлагается поэтапная, осторожная и человеко-ориентированная модель внедрения ИИ. Научная новизна исследования заключается в объединении теории welfare mix, международной практики цифровизации и задач национальной социальной политики в единой аналитической рамке, адаптированной к условиям переходной экономики.

**Ключевые слова:** искусственный интеллект, социальная защита, Узбекистан, адресность, предиктивная аналитика, цифровизация, welfare mix, персонализация услуг.



## KIRISH

Aholini ijtimoiy himoya qilish tizimini samarali, manzilli va barqaror shaklda tashkil etish zamonaviy davlat boshqaruvining eng muhim vazifalaridan biridir. O'tish iqtisodiyoti sharoitida bu masala yanada murakkablashadi, chunki ijtimoiy xatarlar tarkibi tez o'zgaradi, xizmatlarga bo'lgan talab ortadi, byudjet va institutsional resurslar esa cheklangan bo'lib qoladi. Bunday sharoitda ijtimoiy siyosat samaradorligi nafaqat moliyaviy resurslar hajmiga, balki ma'lumotlar sifati, boshqaruv tezkorligi va ehtiyojlarni o'z vaqtida aniqlash qobiliyatiga ham bog'liq bo'ladi [1], [9], [13].

So'nggi yillarda O'zbekistonda ijtimoiy himoya tizimini modernizatsiya qilish bo'yicha keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Aholini ijtimoiy himoya qilish strategiyasining tasdiqlanishi, manzillilikni kuchaytirish, raqamli boshqaruv vositalarini rivojlantirish hamda xizmatlar sifati yaxshilashga qaratilgan chora-tadbirlar ijtimoiy siyosatda yangi bosqichni boshlab berdi [1]. Shu bilan birga, ma'lumotlar bazalarining tarqoqligi, muhtojlikni baholash mezonlarining bir xil emasligi, ma'muriy tartib-taomillarning murakkabligi va ijtimoiy xatarlarni erta aniqlash imkoniyatlarining cheklanganligi kabi muammolar saqlanib qolmoqda.

Ana shunday sharoitda sun'iy intellektni joriy etish masalasi dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. U faqat texnologik yangilik emas, balki ijtimoiy siyosatni yanada aniq, tezkor va ma'lumotlarga asoslangan boshqaruv modeliga o'tkazish imkonini beruvchi vosita sifatida qaraladi. Mashinali o'qitish, prediktiv tahlil, tabiiy tilni qayta ishlash va avtomatlashtirilgan verifikatsiya vositalari ijtimoiy yordamning manzilliligini oshirish, zaif xonadonlarni erta aniqlash hamda xizmatlarni shaxsga moslashtirish imkonini yaratadi [5], [8], [13].

Biroq ijtimoiy jihatdan sezgir sohada sun'iy intellektidan foydalanish bir qator xavflarni ham yuzaga keltiradi. Noto'g'ri yoki to'liq bo'lmagan ma'lumotlar asosida ishlab chiqilgan algoritmlar tizimli xatolarni kuchaytirishi, fuqarolarning huquqlariga salbiy ta'sir ko'rsatishi va davlatga bo'lgan ishonchni pasaytirishi mumkin [5]. Shu sababli sun'iy intellektni ijtimoiy himoyaga joriy etish faqat texnik emas, balki institutsional, huquqiy va axloqiy jihatdan ham kompleks tahlil qilinishi lozim.

Mazkur maqolaning obyekti ijtimoiy himoya tizimi, ya'ni ijtimoiy qo'llab-quvvatlashni taqdim etuvchi institutlar, tartib-taomillar va raqamli mexanizmlar yig'indisidan iborat. Tadqiqot predmeti esa O'zbekiston Respublikasida ijtimoiy himoyani boshqarishda sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish imkoniyatlari, cheklovlari va institutsional shart-sharoitlaridir. Maqolaning maqsadi xalqaro tajriba, milliy islohotlar kun tartibi hamda adolatli boshqaruv tamoyillarini hisobga olgan holda sun'iy intellektni O'zbekiston ijtimoiy himoya tizimiga joriy etishning nazariy va amaliy asoslarini ishlab chiqishdan iborat.

Ushbu maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalar belgilandi:

- birinchidan, mavzuga oid ilmiy adabiyotlarni tahlil qilish;
- ikkinchidan, sun'iy intellektni ijtimoiy siyosatda qo'llashning nazariy asoslarini aniqlash;
- uchinchidan, xalqaro tajribani umumlashtirish va O'zbekiston uchun saboqlarni ajratish;
- to'rtinchidan, ijtimoiy himoya tizimida sun'iy intellekt qo'llanilishi mumkin bo'lgan asosiy yo'nalishlarni belgilash;
- beshinchidan, xatarlar va institutsional cheklovlarni tizimlashtirish;
- oltinchidan, bosqichma-bosqich joriy etish modeli bo'yicha takliflar ishlab chiqish.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Sun'iy intellektning ijtimoiy himoya tizimida qo'llanilishi masalasi so'nggi yillarda xalqaro ilmiy adabiyotlarda keng yoritilmoqda. Hemerijck (2012) va Salamon (1987) ijtimoiy himoya tizimining institutsional asoslarini tahlil qilib, davlat, xususiy sektor va uchinchi sektor o'rtasidagi hamkorlik muhimligini asoslab beradi. Ushbu yondashuv keyinchalik welfare mix nazariyasida rivojlantirilib, ijtimoiy xizmatlarni ko'rsatishda ko'p aktorli model samaradorligi ta'kidlanadi (Pestoff, 1992; Fang & Li, 2025).

Xalqaro tashkilotlar, xususan, OECD (2020) va Jahon banki (2022) hisobotlarida ijtimoiy himoya tizimida raqamlashtirish, ma'lumotlar integratsiyasi va boshqaruv samaradorligini oshirish asosiy ustuvor yo'nalishlar sifatida ko'rsatiladi. McKinsey Global Institute (2023) esa sun'iy intellektning iqtisodiy va ijtimoiy sohalarida qaror qabul qilish sifatini oshirishdagi salohiyatini alohida ta'kidlaydi.

Amaliy tadqiqotlar (Simangunsong, 2023; Agustanta et al., 2024) ijtimoiy yordam dasturlarining samaradorligi ko'p jihatdan ma'lumotlar sifati va to'g'ri manzillilikka bog'liqligini ko'rsatadi. Shu bilan birga, Eubanks (2018) sun'iy intellekt asosidagi tizimlarning ijtimoiy tengsizlikni kuchaytirish xavfiga e'tibor qaratadi. Mazkur ilmiy qarashlar O'zbekistonda ijtimoiy himoya tizimini modernizatsiya qilishda sun'iy intellektni joriy etish zarurati bilan birga, uning institutsional, huquqiy va axloqiy jihatlarini kompleks yondashuv asosida ko'rib chiqishni taqozo etadi.





## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqot sifat metodologiyasiga asoslangan bo'lib, unda qiyosiy tahlil, institutsional yondashuv, policy analysis elementlari hamda ilmiy adabiyotlarning mantiqiy-sistemali sharhi qo'llanildi. Qiyosiy tahlil usuli turli mamlakatlar tajribasini mexanik tarzda ko'chirish uchun emas, balki sun'iy intellektning ijtimoiy himoya tizimida qanday institutsional sharoitlarda samarali ishlashi mumkinligini aniqlash maqsadida qo'llanildi [2], [4], [9], [13].

Institutsional yondashuv ijtimoiy himoyani faqat texnologik muammo sifatida emas, balki qoidalar, rollar taqsimoti, ma'lumotlar almashuvi, javobgarlik va hisobdorlik tizimi sifatida tahlil qilish imkonini berdi [6], [10], [11]. Policy analysis esa muammoni boshqaruv nuqtayi nazaridan ko'rib chiqish, amaliy qo'llanish yo'nalishlarini aniqlash hamda siyosiy qarorlar uchun asosli tavsiyalar ishlab chiqishga xizmat qildi.

Shuningdek, ilmiy va analitik manbalar o'rtasidagi mazmuniy bog'liqlik tahlil qilinib, quyidagi uchta savol asosiy mezon sifatida belgilandi:

1. sun'iy intellekt ijtimoiy himoyada qaysi funksiyalarni bajarishi mumkin;
2. ushbu jarayon qanday xavflarni yuzaga keltiradi;
3. O'zbekiston sharoitida uni qaysi ketma-ketlikda joriy etish maqsadga muvofiq.

Mazkur metodologiya maqolada nafaqat nazariy tahlilni, balki institutsional va amaliy xulosalar chiqarishni ham ta'minlaydi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

1. Sun'iy intellektni ijtimoiy himoyada qo'llashning nazariy mantig'i

Ijtimoiy himoya tizimida sun'iy intellektidan foydalanishning nazariy mantig'i shundan iboratki, ijtimoiy siyosat samaradorligi ko'pincha ehtiyojni o'z vaqtida aniqlash, resurslarni manzilli taqsimlash va xizmatlarni moslashtirish qobiliyatiga bog'liq bo'ladi. Agar tizim faqat murojaatlar tushgandan keyin yoki muammo allaqachon chuqurlashgandan so'ng harakat qilsa, u reaktiv model doirasida qoladi. Sun'iy intellekt esa aynan proaktiv boshqaruv uchun imkoniyat yaratadi, ya'ni xatarlarni oldindan aniqlash va aralashuvni erta boshlashga xizmat qilishi mumkin [8], [13].

Welfare mix nazariyasi nuqtayi nazaridan qaralganda, sun'iy intellekt ijtimoiy siyosat ishtirokchilari o'rtasidagi axborot asimmetriyasini kamaytiruvchi vosita sifatida namoyon bo'ladi. U davlat, xizmat ko'rsatuvchi tashkilotlar va xizmat oluvchilar o'rtasidagi ma'lumotlar oqimini tezlashtiradi, natijada boshqaruv qarorlarining aniqligi oshadi [10], [11]. Biroq bu samara avtomatik tarzda yuzaga kelmaydi; u ishonchli ma'lumotlar, muvofiqlashtirilgan qoidalar va inson nazorati bilan chambarchas bog'liq.

2. Xalqaro tajribadan kelib chiqadigan asosiy saboqlar

Xalqaro tajriba shuni ko'rsatadiki, ijtimoiy himoyani raqamlashtirishning muvaffaqiyati texnologiyaning o'ziga emas, balki uni o'rab turgan institutsional dizaynga bog'liq. Indoneziyada ijtimoiy yordam dasturlarining samaradorligi identifikatsiya tizimi va ma'lumotlar bazalarining uyg'unligi bilan chambarchas bog'liq ekani qayd etiladi [4]. OECD va Jahon banki hisobotlari ham yagona ma'lumotlar maydoni, verifikatsiya mexanizmlari va boshqaruvning soddaligi ta'minlanmasa, raqamlashtirish kutilgan natijani bermasligini ko'rsatadi [9], [13].

Xitoy tajribasi alohida e'tiborga loyiq. Fang va Li tahliliga ko'ra, ijtimoiy xizmatlarning yangi modellari ko'pincha markazlashgan qat'iy boshqaruv orqali emas, balki davlat rag'batlantiruvchi rol o'ynagan, hududiy eksperimentlar amalga oshirilgan va moslashuvchan tashkiliy modellar sinovdan o'tkazilgan sharoitda samarali rivojlangan [2]. Bu O'zbekiston uchun muhim xulosa beradi: sun'iy intellektni darhol butun tizimga joriy etish emas, balki avvalo pilot loyihalar orqali sinab ko'rish maqsadga muvofiq.

Shu bilan birga, AQSh va boshqa rivojlangan mamlakatlar tajribasi algoritmik boshqaruvning xavfli jihatlari ham ko'rsatadi. Eubanks tadqiqotlariga ko'ra, ijtimoiy sohada qo'llanilgan yuqori texnologik vositalar ayrim hollarda ijtimoiy nazoratni kuchaytirgan, xatolarni ko'paytirgan va yordamga kirishni murakkablashtirgan [5]. Demak, samaradorlik va adolat o'rtasidagi muvozanatni ta'minlash asosiy vazifalardan biri hisoblanadi.

3. O'zbekiston ijtimoiy himoya tizimida SI qo'llanilishining istiqbolli yo'nalishlari

O'zbekiston sharoitida sun'iy intellektidan foydalanishning bir nechta ustuvor yo'nalishlarini ajratish mumkin.

Birinchi yo'nalish — zaiflikni erta aniqlash uchun prediktiv tahlil. Daromadlar beqarorligi, norasmiy bandlik, oilaviy tarkibdagi o'zgarishlar va boshqa omillar asosida ijtimoiy xatar ehtimolini oldindan baholash tizimi davlatga erta aralashuv imkonini beradi. Bu, ayniqsa, kambag'allikka tushish xavfi yuqori bo'lgan xonadonlar bilan ishlashda muhimdir [3], [13].

Ikkinchi yo'nalish — verifikatsiya va manzillilikni kuchaytirish. Turli reyestrlardagi ma'lumotlarni avtomatik taqqoslash, nomuvofiqliklarni aniqlash va xatolik ehtimolini baholash ijtimoiy yordamni yanada aniq taqsimlash imkonini beradi [4], [9]. Bu ma'muriy yukni kamaytirishi mumkin, biroq yakuniy qaror ustidan inson nazorati saqlanishi zarur.



Uchinchi yo'nalish — xizmatlarni shaxsga moslashtirish. Ijtimoiy zaiflik bir omil bilan emas, balki ko'p o'lchovli ehtiyojlar kombinatsiyasi bilan shakllanadi. Sun'iy intellekt asosidagi tahlil fuqarolarga standart paket emas, balki ularning individual ehtiyojlariga mos xizmatlar majmuasini taklif etish imkonini beradi. Bu, ayniqsa, kompleks holatlarda — masalan, kambag'allik, nogironlik, ishsizlik va parvarish ehtiyoji birlashgan vaziyatlarda muhim ahamiyatga ega.

To'rtinchi yo'nalish — murojaatlarni tahlil qilish va servis dizaynini takomillashtirish. Tabiiy tilni qayta ishlash vositalari fuqarolar murojaatlaridan asosiy muammolarni aniqlash, takrorlanuvchi byurokratik to'siqlarni aniqlash va xizmat ko'rsatish jarayonlarini qayta loyihalashga yordam beradi.

Beshinchi yo'nalish — strategik boshqaruvni qo'llab-quvvatlash. Sun'iy intellekt hududlar bo'yicha talab dinamikasi, ijtimoiy dasturlar yuklamasi, muhtojlikning ehtimoliy o'sish zonalari va resurslarni taqsimlash samaradorligini prognozlash uchun qo'llanilishi mumkin [8], [13].

#### 4. Asosiy xatarlar va cheklovlar

Tahlil shuni ko'rsatadiki, ijtimoiy himoya tizimida sun'iy intellektni joriy etishning muvaffaqiyati ko'p jihatdan yuzaga kelishi mumkin bo'lgan xavflarni oldindan aniqlash va boshqarishga bog'liq.

Birinci xavf — ma'lumotlar sifati. Agar algoritmlar noto'liq, eskirgan yoki og'ishlarga ega ma'lumotlar asosida o'qitilsa, ular mavjud xatolarni takrorlaydi va hatto kuchaytiradi [5]. Ijtimoiy sohada bunday xatolar yordamga muhtoj shaxsning tizimdan tushib qolishiga yoki, aksincha, resurslarning noto'g'ri yo'naltirilishiga olib kelishi mumkin.

Ikkinchi xavf — algoritmik adolatsizlik va shaffoflikning yetishmasligi. "Qora quti" tamoyili asosida ishlovchi modellar qaror nima sababdan qabul qilinganini tushuntirishni qiyinlashtiradi. Bu esa fuqarolarning huquqlarini himoya qilish, shikoyatlarni ko'rib chiqish va hisobdorlikni ta'minlash jarayonlarida muammolarni yuzaga keltiradi [5].

Uchinchi xavf — institutsional tayyorgarlikning yetarli emasligi. Idoralararo ma'lumot almashish reglamentlari aniq belgilab qo'yilmagan bo'lsa, javobgar organlar aniqlanmagan bo'lsa hamda hududiy bo'g'inlarda algoritmik natijalarni sharhlay oladigan mutaxassislar yetarli bo'lmasa, hatto ilg'or texnologik yechimlar ham kutilgan natijani bermaydi [9], [13].

To'rtinchi xavf — raqamli chetlashuv. Raqamli savodxonligi past bo'lgan, olis hududlarda yashovchi, yoshi katta yoki nogironligi bo'lgan fuqarolar to'liq raqamlashtirilgan tizimda noqulay holatga tushib qolishi mumkin. Shu sababli sun'iy intellektni joriy etish insoniy aloqa, oflayn kirish imkoniyatlari va assistiv mexanizmlar bilan uyg'un holda amalga oshirilishi zarur.

#### 5. Bosqichma-bosqich joriy etish modeli

Tadqiqot natijalariga ko'ra, O'zbekiston uchun sun'iy intellektni ijtimoiy himoya tizimiga joriy etishning uch bosqichli modeli maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Birinci bosqich — tayyorgarlik bosqichi. Unda ma'lumotlar bazalarini standartlashtirish, idoralararo almashuvning huquqiy asoslarini mustahkamlash, himoyalangan raqamli infratuzilmani rivojlantirish va cheklangan ko'lamdagi pilot loyihalarni yo'lga qo'yish zarur. Bu bosqichda texnologiyadan ko'ra ma'lumotlar sifati va boshqaruv qoidalari ustuvor ahamiyatga ega.

Ikkinchi bosqich — amaliy pilotlar bosqichi. Ushbu bosqichda prediktiv tahlil, verifikatsiya, murojaatlarni qayta ishlash hamda ijtimoiy xodimlar uchun qaror qabul qilishni qo'llab-quvvatlash vositalari sinovdan o'tkaziladi. Har bir model mustaqil monitoring, audit va shikoyat mexanizmlari bilan birgalikda ishlashi shart.

Uchinchi bosqich — institutsionallashtirish va kengaytirish bosqichi. Samaradorligi isbotlangan yechimlar milliy miqyosda joriy etiladi, algoritmik boshqaruv standartlari ishlab chiqiladi, maxsus kompetensiya markazlari tashkil etiladi va modellar muntazam ravishda auditdan o'tkaziladi.

#### 6. Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati

Mazkur tadqiqotning asosiy natijasi shundan iboratki, sun'iy intellekt ijtimoiy himoya tizimida faqat operatsion samaradorlik vositasi sifatida emas, balki institutlararo muvofiqlashtirishni kuchaytirish, manzillilikni oshirish, proaktiv boshqaruvni ta'minlash va xizmatlar sifatini yaxshilashning yangi bosqichi sifatida ko'rib chiqiladi. Tadqiqot O'zbekiston sharoitida sun'iy intellektni birdaniga keng joriy etish emas, balki huquqiy, institutsional va axloqiy cheklovlarni hisobga olgan holda bosqichma-bosqich tatbiq etish zarurligini asoslab beradi.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Sun'iy intellekt O'zbekiston aholisini ijtimoiy himoya qilish tizimini modernizatsiya qilishda muhim vositaga aylanishi mumkin. Uning salohiyati faqat ayrim operatsiyalarni avtomatlashtirish bilan cheklanmaydi; u ijtimoiy yordamning manzilliligini oshirish, zaiflikni erta aniqlash, xizmatlarni shaxsga moslashtirish hamda strategik qarorlar uchun tahliliy asosni mustahkamlash imkonini beradi. Shu bilan birga, sun'iy intellekt ijtimoiy siyosat muammolarining universal yechimi emas. Sifatli ma'lumotlar, idoralararo muvofiqlashtirish, aniq hisobdorlik qoidalari, axloqiy cheklovlar va fuqarolar huquqlarini himoya qilish mexanizmlarisiz raqamli yechimlar mavjud



nuqsonlarni yangi shaklda takrorlashi mumkin. Shu bois asosiy masala sun'iy intellektni ijtimoiy himoyaga joriy etish yoki etmaslikda emas, balki uni mas'uliyatli, bosqichma-bosqich va institutsional jihatdan to'g'ri tarzda amalga oshirishdadir. O'zbekiston uchun bu texnologik samaradorlikni ijtimoiy adolat bilan, raqamli modernizatsiyani huquqiy kafolatlar bilan hamda boshqaruv innovatsiyasini fuqarolar hayoti sifatining real yaxshilanishi bilan uyg'unlashtirgan holda sun'iy intellektni joriy etish modelini yaratish imkonini anglatadi. Aynan shunday yondashuv ijtimoiy himoyani raqamlashtirishni shunchaki namoyishkorona "vitrina" emas, balki jamoat farovonligiga xizmat qiladigan samarali mexanizmga aylantira oladi. O'tkazilgan tahlillar shuni ko'rsatdiki, sun'iy intellekt O'zbekiston ijtimoiy himoya tizimini modernizatsiya qilishda muhim vosita hisoblanadi. Uning asosiy afzalliklari ijtimoiy yordamning manzilliligini kuchaytirish, zaif xonadonlarni erta aniqlash, xizmatlarni shaxsga moslashtirish va strategik qarorlar uchun tahliliy asos yaratishdan iborat. Shu bilan birga, sun'iy intellektni samarali qo'llash sifatli ma'lumotlar, aniq reglamentlar, hisobdorlik, audit tizimlari hamda fuqarolar huquqlarini himoya qilish mexanizmlarini talab etadi. Tadqiqot asosida ijtimoiy himoya tizimida sun'iy intellektni joriy etish bo'yicha alohida institutsional yo'l xaritasini ishlab chiqish, yagona va integratsiyalashgan ma'lumotlar arxitekturasini shakllantirish, pilot loyihalarni cheklangan funksiyalar doirasida bosqichma-bosqich amalga oshirish, algoritmik boshqaruv uchun axloqiy va huquqiy standartlarni ishlab chiqish, mutaxassislar salohiyatini oshirish hamda raqamli inklyuziyani parallel ravishda rivojlantirish zarurligi asoslab berildi. Shunday qilib, O'zbekiston uchun maqbul yondashuv sun'iy intellektni shoshilinch ravishda keng joriy etish emas, balki uni ehtiyotkor, bosqichma-bosqich va inson markazidagi boshqaruv tamoyillari asosida ijtimoiy himoya tizimiga integratsiya qilishdan iborat. Faqat shunday yondashuvga raqamlashtirishni namoyishkorona "vitrina" emas, balki haqiqatan samarali ishlaydigan ijtimoiy siyosat mexanizmiga aylantira oladi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi aholisini ijtimoiy himoya qilish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi 2022-07-25 dagi PF-175-son Farmoni. <https://www.lex.uz/uz/docs/-6130265>
2. Fang, L., & Li, B. (2025). The Entrepreneurial Welfare Mix: The Case of Community-Based Old Age Services in China. *Social Policy and Society*, 24, 373-382.
3. Simangunsong, H. (2023). The Impact of Economic Conditions on Social Assistance Programs and Poverty Alleviation. *Law and Economics*, 17(2), 73-91.
4. Agustanta, N., Anggalini, T. D., Septiningrum, L., & Dewanti, P. (2024). Assessing the Effectiveness of Social Assistance Programs to Alleviating Poverty in Indonesia. *KnE Social Sciences*, 511-521.
5. Eubanks, V. (2018). *Automating Inequality: How High-Tech Tools Profile, Police, and Punish the Poor*. New York: St. Martin's Press.
6. Hemerijck, A. (2012). *Changing Welfare States*. Oxford: Oxford University Press.
7. McKinsey Global Institute. (2023). *The Economic Potential of Generative AI: The Next Productivity Frontier*. McKinsey & Company.
8. OECD. (2020). *Efficiency and Effectiveness in Social Protection Systems: A Review of Evidence*. Paris: OECD Publishing.
9. Pestoff, V. A. (1992). Third Sector and Co-operative Services — An Alternative to Privatization. *Journal of Consumer Policy*, 15(1), 21-45.
10. Salamon, L. M. (1987). Of Market Failure, Voluntary Failure, and Third-Party Government. *Journal of Voluntary Action Research*, 16(1-2), 29-49.
11. World Bank. (2022). *The State of Social Safety Nets 2022*. Washington, D.C.: World Bank Group.



## IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Zokir ALIBEKOV

**Sahifalovchi va dizayner:** Oloviddin Sobir o'g'li

---

**2026. № 3**

---

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.  
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot\_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot\_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

**Litsenziya raqami:** №046523. PNFL: 30407832680027

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani  
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>